

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 111.852:2(575.1)

FAZL IBN AHMAD QARASHLARIDA AXLOQIY MASALALARNING FALSAFIY TAHLILI

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НРАВСТВЕННЫХ ПРОБЛЕМ В ВОЗЗРЕНИЯХ ФАЗЛА ИБН АХМАДА

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF MORAL ISSUES IN THE VIEWS OF FAZL IBN AHMAD

Soipova Mavjuda Karimjanovna 
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Fazl ibn Ahmadning insonlarning axloqiy masalalariga oid muhim g'oyalar tahlil qilinganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Iddat ul ukul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqlarga ma'qul narsalarning asosi) asarida nafs, tana va ruh aloqadorligi haqida fikrlar keltirilgan. Yangi O'zbekistonni barpo etishda Fazl ibn Ahmad g'oyalari bilan bugungi murakkab zamonda yoshlarni ruhiy barkamol insonlar etib tarbiyalash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda Fazl ibn Ahmadning Iddat ul ukul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqlarga ma'qul narsalarning asosi) risolasi samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat farovonligida va inson ehtiyojlarini qondirishida ustuvorligi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье представлены сведения об анализе ключевых идей Фазла ибн Ахмада, связанных с моральными проблемами человеческой природы. В его трактате «Иддат ул-укул ва умдат ул-ма'кул» («Обет разумов и основа разумного») изложены размышления о взаимосвязи между душой, телом и духом. В контексте построения Нового Узбекистана идеи Фазла ибн Ахмада сохраняют актуальность: они способствуют духовному и нравственному совершенствованию молодежи, формированию гармоничной личности в условиях современного сложного мира. В статье подчеркивается, что эффективное использование трактата «Иддат ул-укул ва умдат ул-ма'кул» в современных условиях способствует социальному прогрессу, общественному благополучию и удовлетворению человеческих потребностей, выступая важным элементом нравственного и интеллектуального воспитания.

Abstract

This article provides information about the analysis of Fazl ibn Ahmad's important ideas concerning moral issues of human beings. In his work "Iddat al-Uqul wa 'Umdat al-Ma'qul" (The Promise of Intellects and the Foundation of Reason), he presents reflections on the interrelation between the soul, body, and spirit. In the process of building New Uzbekistan, Fazl ibn Ahmad's ideas remain crucial for educating spiritually mature individuals and enhancing the moral and intellectual development of the younger generation in today's complex world. The article highlights that the effective use of Fazl ibn Ahmad's treatise "Iddat al-Uqul wa 'Umdat al-Ma'qul" plays a significant role in promoting social progress, public welfare, and the fulfillment of human needs.

Kalit so'zlar: Islom, axloq tana, ruh, ijtimoiy ilm taraqqiyot, insondialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

Ключевые слова: ислам, нравственность, тело, дух, социальное развитие, человек, диалектика, синергетика, детерминизм, духовные, национальные и общечеловеческие ценности, прогрессивное развитие, моральные ценности, эстетика, политика, право, демократия.

Key words: Islam, morality, body, soul, social development, human being, dialectics, synergetics, determinism, spiritual, national and universal values, progressive development, moral values, aesthetics, politics, law, democracy.

KIRISH

Insonlar o'rtasidagi sadoqat, mehr, muhabbatning kuchliligini munosobatlarda, ya'ni so'zda, harakatlarida ko'rishimiz mumkin. Ba'zilar bunday muhabbat nomiga bo'lib, maqsad nafs, shahvat yotadi. Shuning uchun Allohning muhabbati maxluqot muhabbatiga nisbatan kuchli, shiddatli va qudratlidir.

Haqqa etishishda ruh va tana o'rtasidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu birinchi galda inson tabiatini nafs balosidan, noxushliklardan xalos qilish, ma'naviyatdan bahramand bo'lish, ishq gulzorida devonalik darajasiga etishish orqali erishiladi. Inson to'rtta unsurdan tashkil topgan. Bular tana, aql, ruh va qalbdir. Inson bir umr qiynalib yashaydi:

ya'ni qaysining yo'liga yurish muddaoga olib keladi. Aqlning yoki qalbningmi? G'azzoliy fikricha: "Aqlda kibr bor, Sen qalbing buyurganini qil. Qalb hech qachon insonni aldamaydi"¹¹, deb ta'kidlaydi.

Allohning bizga bergan har bir ne'matiga shukr qilish, pok va adolatli hayotning asosi hisoblanadi. Agar inson shukr qilmaydigan bo'lsa, Alloh unga yanada ko'proq ne'matlarni berishni to'xtatishi mumkin. Inson o'zining dunyoviy va ma'naviy hayotini yaxshi, baxtli va barqaror qilishini istasa, bu gunohlardan qochish kerak. Zulm, xayrdan chetlashish, shukr qilishdan voz kechish insonning Allohning rahmatidan uzoqlashishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fazl ibn Ahmadning Iddat ul ukul risolasida keltirilishicha, uchta narsa insonni saodatga yetkazadi, ya'ni suhbatni to'g'ri olib borish, boshqalarni ayblarini oshkor qilmaslik va oxirat uchun qayg'urish.

Fazl ibn Ahmad fikricha "chindan qilingan, xayr-ehson (saxovat)ning chegarasi bor, undan oshirilsa isrof bo'ladi. Uzoqni ko'zlash va ehtiyotkorlikning ham chegarasi bor. Bu chegaralar haddidan oshsa qo'rqqulikdir

Mutafakkir ilgari surilgan insonlar orasidagi kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashish, nafsni tarbiyalash, ilm-ma'rifatli bo'lish, tahdid va xavflardan ogoh bo'lish, g'afolat uyqusidan bedorlik, hushyorlik ruhiyatini shakllantirish kabi qarashlarining yosh avlodni yuksak fazilatli insonlar qilib tarbiyalashda, ilm olishda munosib, tajribaga ega bo'lgan ustozni tanlash hamda Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda manbaviy asos sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

NATIJALAR

Tasavvuf ta'limotida esa inson besh unsurdan tashkil topadi: Bular, tana ya'ni jism, aql, ruh, qalb va nafsdan iborat. Tasavvuf ta'limotida inson vujudining kurashi aql va nafs sifatida qo'yiladi. Demak, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, inson nafas balosini yengib undan qutulsagina oriflik maqomi erishadi. Agar inson oriflik darajasiga ko'tarilsa, u Haqni qalb ko'zgisida g'ayritabiiy bir holatda ko'ra boshlaydi, eshitmay turib eshita boshlaydi. Bu holatni mutasavvufilar jazba, deb tushuntiradilar.

Odam omixtaligi tufayli ikki jihatga – jismiy va ruhiy tomonga moyildir. Jismiy-jasadiy tomoni uni quyiga, pastga tortadi, ruhiy-ravoniy jihatida esa uni yuqoriga, yuksaklikka jalb etadi. Shuning uchun tasavvuf murshid-ustozlari odamlarni ikki turga: Nuriy va Noriy odamlarga taqsimlaganlar. Nuriy odamlar hayotda, yashashda o'zining haqiqiy, abadiy tomoni, ruhiy, ya'ni ilohiyga e'tibor berib, jismoniy-jasadiy tomonini chegaralaydi. Nuriy odamlarni yashash qoidasi tavakkal, ya'ni Haq Taollo tomonidan belgilangan taqdirga tan berish, taslim – yaratuvchi Xudoga taslim bo'lish, xilvat – ya'ni chetda tutish, uns – Xoliqqa yaqinlashish, vahdat Xudoning yakkayu yagonaligiga to'la e'tiqodli bo'lish va holat – Xudoga yaqinlashish uchun o'zini muayyan ruhiy holatga keltirishdir. Noriylar o'tga, olovga o'xshaydigan odamlar bo'lib, ular shahvat, ya'ni jismiy-jasadiy va jinsiy nafsga berilgan, qaxru g'azabni namoyon etib, turlicha hirslarga berilgan, hasadgo'y, baxil va bepoyon orzu-havasga berilgandirlar. Tasavvuf aqoidi ta'limotiga ko'ra faqat nuriy bo'lgan shaxslar o'zini muayyan to'g'ri hayot yo'liga solib quyi tomoni bo'lmish jismiy-jasadiy istak-tilaklarini orzu-havaslarini chegaralab, nafsini tiyib, lijomlab, o'zini pok, sof etib, haqiqiy ruhiy-ravoniy tomonga to'la berilib yaratuvchi Xudoyi Taolloga yaqinlashishi mumkin.

MUHOKAMA

Nafsni Alloh mo'min qilib yaratdi va uni zaytun daraxtidek muborak daraxt deb nomladi. Sahl ibn Abdulloh "Bu Muhammad sollallohu alayhi vasallamning nurlaridir"¹² desa Sufyoni Savriy aytdi: "Bu Qur'on nurining misolidir"¹³ degan fikrni keltiradi.

Fazl ibn Ahmad inson nafsining tanaga bog'liq emasligi, uning o'zi alohida mohiyat ekanligini keltiradi. Ya'ni, insoniy nafs jism emas, balki substansiyadir. Uning substansiya ekanligiga dalil shundan iboratki, har qanday narsa, agar u tanani harakatlantirsa va uni boshqarsa, o'zining zotida turishi shart. Agar inson nafs o'z zotida tursa va mutaqobillarini qabul qilib, ularga bog'lanmay, o'zini o'zgartiramas, hamda zoti aniq va chegarasiz bo'lsa, substansiyadir. Chunki, bu sifatlar inson nafsining xossaligidir.

¹¹ Соҳибназар Каримов Тасаввуф фалсафаси. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. – 210 бет

¹² Имом Абу Абдурахмон Муҳаммад ибн Хусайн ибн Мусо ал-Аздий ас-Суламий. - Байрут, Либнон. Дор - алкутуб ал-илмийя, 2001. – Б.503.

¹³ Имом Абу Абдурахмон Муҳаммад ибн Хусайн ибн Мусо ал-Аздий ас-Суламий. - Байрут, Либнон. Дор - алкутуб ал-илмийя, 2001. – Б.504.

FALSAFA

بدان که نفس انسانی جوهر است نه عرض است و نه جسم. و بر جوهریت او دلیل آن است که هر آن چیزی که محرک و مدبر جسم باشد قائم بود به ذات خویش بضرورت. و هر چه به ذات خویش قائم باشد و قابل متضادات بود و به قبول آن متضادات متغیر و متبدل نگردد و در ذات متحد باشد بی کمیت و مقدار، لازم شود که آن چیز جوهر باشد. و اینجا گفته آمد جمله صفات انسانی است پس لازم شود که نفس انسانی جوهر است و جسم و عرض نیست.¹⁴

Mazmuni: Nafs insoniy: araz ham emas va jism ham emas, balki javhardir. Nafs insoniy javhar hisoblanadi. Javharlik, bu erda, uning jism va hududga bog'liq emasligi, balki o'z mohiyatida to'g'ri bo'lishini tasdiqlaydi. Inson nafsining javhar ekanining dalili – har bir narsa biron jismni harakatga keltirib, tadbirini qila olsa va o'zicha mavjud bo'lib tura olsa u zaruratan javhar hisoblanadi.

Har bir narsa o'zicha qoim bo'lish bilan birga zid narsalarni qabul qila olsa, zid narsalar uni o'zgartirmasa va unda miqdori o'lchovlar bo'lmasa uning javhar bo'lishi lozim bo'ladi. Agar biron bir narsa jismni harakatlantirish va unga ta'sir o'tkazish qudratiga ega bo'lsa, u zotan javhar bo'ladi. Shuningdek insondan sodir bo'lgan sifatlarni harakatlantiruvchi kuch ham javhardir. Araz ham emas, jism ham emas. U har qanday material va qism bilan cheklanmaydi va o'zining haqiqiy tabiatiga xos bo'lgan yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatadi. Bu har qanday materialning o'ziga xosligiga qaramasdan o'z holatini saqlash xususiyatidir.

Nafs psixika va jismoniy harakatlar bilan chegaralanmaydi. U doim mavjud bo'lib, o'zining yagonalik hududlarini belgilab, o'zga hissiyotlar va holatlarga ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun, nafs javhar bo'lib, uning xususiyatlari jism va sifatlardan chegaralangan emas. U munosabat va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, shuning uchun javharlik tabiati uning asosiy atributidir.

XULOSA

Demak, nafs insoniy javhar bo'lib, jism va sifatlardan mustaqildir. U jismlarning harakatini boshqarish va ularni tavsiflashga qobiliyatli bo'lgani sababli uning javhariyligi tasdiqlanadi. Agar bir narsa o'zini o'zgartirishsiz harakatlantira oladigan bo'lsa, demak, u biror modda yoki holat emas, balki mustaqil substansiyadir. Bu fikr, inson nafsining har bir o'zgarishga tobe bo'lmasdan, o'z zotida bo'lib, hayotni boshqarishda ishtirok etishini tasvirlaydi. Demak, inson nafsining tabiati modda yoki holatdan farqli bo'lib, u faqat substansiya bo'la oladi. "Nafs o'z zotida turishi shart", ya'ni nafs faqat o'zidan iborat, o'zga narsalardan mustaqil bo'lgan, o'zini ifoda etish va boshqarish qobiliyatiga ega. Nafsning o'zgarmasligi insonning ruhiy yoki aqliy fazilatlarini qanday qarorlarda, voqealarda va holatlarda saqlashiga tegishlidir. Masalan, odam shodlik yoki qayg'uda bo'lsa, uning nafsining asosiy xolati o'zgarmaydi, balki uning hissiyotlari bo'yicha tashqi jismlarning ta'siriga va shartlarga bog'lanish mumkin. Ammo, nafsning hududiy zoti doimo barqaror bo'lib qoladi. Inson nafsining bu xususiyatlari uning axloqiy, aqliy va ruhiy darajalarini to'liq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. // *Hidoyat*. – Toshkent: 2017. № 6. – B. 7
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2018. – B. 737
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad ibn al-Futiy. "Tahis ma'rifat al-rij'al" // Najib Moyil Haraviy tarj. - Mashhad, Oston Quds Rizaviy, 1993 y. – B. 37.
4. Fazl ibn Ahmad "Iddat al-uqul va mas'ul" - Mashhad, Oston Quds Rizaviy, 1993 y. - B. 20.
5. Am'ak-i Buhârî, Dîvân (nşr. Sa'îd-i Nefîsî), Tahran, ts., s. 188.
6. Vohidov Sh., Erkinov A. Nizomulmulk. Siyosatnoma. (Siyar ul-muluk). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B.239
7. Shodiyev J. Umar Xayyom ma'naviy merosining falsafiy tahlil. – Toshkent, 2022. – B. 140.
8. Yâkût, Mu'cemü'l-büldân (nşr. F. Wüstenfeld), Leipzig 1867 → (ed. Fuat Sezgin), Frankfurt 1994, III/1, s. 231; IV/1, s. 509.
9. Ahmad ibn Abd Allāh Abū Nu'aym al-Isfahānī // AlKindi (onlayn-katalog Dominikanskogo instituta vostokovedeniya). [Abū Nu'aym al-Isfahānī](#) / Pedersen, J. // [Encyclopaedia of Islam](#). 2nd ed : [angl.] : in 12 vol. / edited by [H. A. R. Gibb](#)
10. Nazarov Q. Borliq falsafasi. - Toshkent.: 2007.
11. Falsafa: qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: "Sharq", 2004. – B. 431.

فضل بن احمد بن خلف بخاري. عده العقول و عده المعقول في اوضح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ش. 1993 م.¹⁴